

DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA FARQLARI

Yo‘ldosheva Rohila

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti

2-bosqich talabasi

@yoldoshevarohila3@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada diplomatik huquq va konsullik huquqining asosiy tushunchalari hamda ularning o‘zaro farqlari tahlil qilingan. Ushbu huquq sohalarining vazifalari, vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlari qiyosiy asosda yoritilgan. Shuningdek, diplomatik va konsullik huquqining davlatlar tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida diplomatik vakolatxonalar va konsulxonalar faoliyati misolida mavzuning amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: diplomatik huquq, konsullik huquq, konvensiya, diplomatik vakolatxona, konsul.

BASIC CONCEPTS AND DIFFERENCES OF DIPLOMATIC AND CONSULAR LAW

Yuldosheva Rohila

Namangan State University Faculty of Law

2nd year student

Annotation. This article analyzes the basic concepts of diplomatic law and consular law and their differences. The tasks, powers and areas of activity of these areas of law are covered on a comparative basis. The role of diplomatic and consular law in the foreign policy of states and international relations is also indicated. The article reveals the practical significance of the topic on the example of the activities of diplomatic missions and consulates in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: diplomatic law, consular law, convention, diplomatic mission, consul.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И РАЗЛИЧИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО И КОНСУЛЬСКОГО ПРАВА

Юлдошева Рохила

*Юридический факультет Наманганского государственного
университета Студентка 2 курса*

Аннотация. В данной статье анализируются основные понятия дипломатического и консульского права и их различия. На сравнительной основе рассматриваются задачи, полномочия и сферы деятельности этих областей права. Также указывается роль дипломатического и консульского права во внешней политике государств и международных отношениях. В статье раскрывается практическое значение темы на примере деятельности дипломатических миссий и консульств в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: дипломатическое право, консульское право, конвенция, дипломатическая миссия, консул.

Diplomatik huquq yoxud tashqi aloqalar huquqi -xalqaro huquqning alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, rasmiy davlatlararo munosabatlarni tartibga solib turadi. Xalqaro huquqning eng qadimiy sohalaridan bo'lgan bu soha tarixan "elchilik huquqi" sifatida shakllangan va rivojlangan. XIX asr boshlaridan boshlab diplomatik huquq nomini oldi. Hozirgi XXI asrda esa xalqaro maydonda davlatlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar har tomonlama rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro munosabatlarda teng huquqli subyektga aylandi va bu Norma asosiy Qonunimizning 17-moddasida belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish bo'yicha boshlangan keng ko'lamli ishlarni milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz. O'lis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko'p qirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz." Shu nuqtai nazardan, diplomatik va konsullik huquqi davlatimizning tashqi siyosatidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi diplomatik va konsullik huquqining asosiy tushunchalari

¹ Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun - "Yuridik adabiyotlar publish", 2025. 286-bet.

² Мирзиёев Ш. Миллий тараққиётимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1 - Т.: Ўзбекистон, 2017. - Б.27.

va farqlarini i tahlil qilish shuningdek ularning tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarda o'rnini yoritishdir.

Diplomatik huquq xalqaro huquqning eng qadimiy va mustaqil sohasidir. Xalqaro huquqni diplomatik huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu Norma shuni ko'rsatadiki, diplomatik huquq Davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqning tarixiy sohasidir. Diplomatiyaning ilk ko'rinishlari Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim tarixiga borib taqaladi. Xalqaro huquq qoidasidan kelib chiqqan holda diplomatiya ya'ni Davlatlar o'rtasidagi muayyan munosabatlar bo'lmas ekan xalqaro huquqning ahamiyati qolmaydi.

Diplomatik huquq -davlatlar diplomatik vakolatxonalarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga soluvchi normalar majmuidir.

Diplomatik huquq manbaiga, avvalo, odat normalri kiradi. Ko'p jihatdan ushbu normalar umume'tirof etilgan. Ular qator konvensiyalarda:

1961-yildagi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasid;

1969-yildagi Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiyasida;

1973-yildagi Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlarni jazolash to'g'risidagi konvensiyada;

1975-yildagi Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlarning vakillari to'g'risidagi Vena konvensiyasidan kodifikatsiyalangan va to'ldirilgan.³

Diplomatik munosabatlarning asosiy manbalaridan biri hisoblangan 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq, davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish va doimiy vakolatxonalar tashkil etish faqat o'zaro rozilik asosida amalga oshiriladi. Shu jihatdan AQSh va Kuba o'rtasidagi holatlar amaliy misol bo'la oladi: 1961-yil 3-yanvarda AQSh Kuba bilan diplomatik munosabatlarni uzdi. 2015-yil 20-iyulda esa AQSh va Kuba diplomatik munosabatlarni rasman tikladi; ushbu qaror AQSh Prezidenti Barak Obama va Kuba Prezidenti Raul Kastro o'rtasida 2015-yil 30-iyunda amalga oshirilgan rasmiy maktub almashuvi asosida qabul qilindi.⁴

Konsullik huquqi -konsullik muassasalari va ularning xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi hamda ularning maqomi, funksiya, huquq va majburiyatlarini belgilovchi xalqaro huquqiy tamoyillar va normalar, shuningdek milliy qonunchilik majmuidir.

Konsullik munosabatlari davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan amaliy chora tadbirlari shakllari, vosita va usul majmui bilan tavsiflangan tegishli organlari tomonidan vakillik qilinadigan Davlatlar o'rtasidagi rasmiy

³ Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun -"Yuridik adabiyotlar publish", 2025. 286-bet.

⁴ U.S. Department of State, Office of the Historian "Cuba – Bilateral Relations" (history.state.gov)

munosabtlardir. Konsullik munosabatlarini xalqaro huquqiy va milliy huquqiy vositalar bilan huquqiy tartibga solish konsullik huquqi nomini oldi. Turli davlatlarda faoliyat olib borayotgan konsulxonalar qoida bo'yicha davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi hamda bu xalqaro huquqda muhim ahamiyat kasb etadi.⁵

Konsullik munosabatlarining o'rnatilishi va konsulliklarning ta'sis etilishi Davlatlar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Bu munosabatlar diplomatik aloqalar mavjud bolmagan, masalan davlat yoki hukumat de fakto tan olingan hollarda ham, o'rnatilishi mumkin. Bunday sharoitda konsullik muassasi ayrim diplomatik vazifalarni ham bajaradi. Bu boradagi universal shartnoma 1963-yildagi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensyasidir.⁶

Diplomatik va konsullik huquqi tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarda birdek muhim vosita bo'lsa ham, ular o'rtasida bir nechta mezonlar asosida farqlar mavjud. Quyida diplomatik va konsullik huquqining ketegoriyalari bo'yicha farqlari ko'rsatilgan.

Faoliyat va vazifalari bo'yicha :

Diplomatik huquqda

Diplomatik vakolatxonaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) akkreditatsiya qiluvchi davlatni qabul qiluvchi davlatda vakillik qilish;
- b) akkreditatsiya qiluvchi davlat va uning fuqarolari manfaatlarini xalqaro huquq doirasida himoya qilish;
- c) qabul qiluvchi davlat hukumati bilan muzokaralar olib borish;
- d) qabul qiluvchi davlatdagi sharoit va voqealar haqida qonuniy yo'l bilan ma'lumot to'plash va bu haqda o'z hukumatiga xabar berish;
- e) ikki davlat o'rtasida iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohalarida do'stona munosabatlarni rivojlantirish.⁷

Konsullik huquqda

Konsul vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) Mehmon davlatda yuboruvchi davlat va uning fuqarolarining (jismoniy va yuridik shaxslar) manfaatlarini xalqaro huquq doirasida himoya qilish;
- b) Yuboruvchi davlat va mehmon davlat o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish hamda ularni do'stona munosabatlarni rivojlantirishga boshqa yo'llar bilan ko'maklashish;

⁵ Yuldosheva G. Diplomatiik va konsullik huquqi: darslik . Yuldosheva Govxerjan. -T.: TDYU nashriyoti 2024. 107-bet

⁶ Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun -"Yuridik adabiyotlar publish", 2025. 295-bet

⁷ Vienna Convention on Diplomatic Relations, 1961, Article 3.

c) Mehmon davlatning savdo, iqtisodiy, madaniy va ilmiy hayotidagi shart-sharoitlar va voqealarni qonuniy yo'llar bilan aniqlash, ularni yuboruvchi davlat hukumati bilan bo'lishish va manfaatdor shaxslarga ma'lumot berish;

d) Yuboruvchi davlat fuqarolariga pasport va sayohat hujjatlarini berish, yuboruvchi davlatga bormoqchi bo'lgan shaxslarga viza yoki tegishli hujjatlarni berish;

e) Yuboruvchi davlat fuqarolariga (jismoniy va yuridik shaxslarga) yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash. 8

Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, diplomatik vakolatxona asosan, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilm-fan) tartibga solishda faoliyat o'tasa, konsullik muassasi esa asosan yuboruvchi davlat fuqarolarining jismoniy va yuridik shaxslar manfaatini xalqaro huquq doirasida himoya qilish, ularga kerakli huquqiy yordam ko'rsatish va erkinliklarini himoya qilish faoliyatida ish olib boradi.

Huquqiy asosi bo'yicha

Diplomatik huquqda

1961-yildagi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi

Konsullik huquqda

1963-yildagi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi

Bu faktlar asosida bilib olishimiz mumkinki, ularni asosiy manbasi va tartibga solishdagi huquqiy asoslarida ham farqlar mavjud.

Rahbar (elchi, konsul) tayinlash mezonlari bo'yicha

Diplomatik huquqda

Vakolatxona boshlig'i tayinlanishiga qadar yuboruvchi davlat uning uning shu lavozimga tayinlanishi to'g'risida qabul qiluvchi mamlakatning roziligini (agrement) olishi zarur

Konsullik huquqda

Konsulni tayinlashda muayyan shaxs yuzasidan qabul qiluvchi davlatning oldindan roziligi talab etilmaydi.⁹

Mening fikrimcha, diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlashda qabul qiluvchi davlatning oldindan roziligi talab etilishi uning siyosiy vakolatlari va davlat suverenitetiga bevosita ta'siri bilan izohlanadi. Konsullik xodimlari esa asosan amaliy va texnik vazifalarni bajarishi sababli, ularni tayinlashda bunday qat'iy talab mavjud emas.

Demak, diplomatik huquq va konsullik huquqi o'rtasidagi farqlar ularning faoliyat va vazifalari, huquqiy asosi va rahbarlarni tayinlash tartibida namoyon bo'ladi.

⁸ Vienna Convention on Consular Relations (1963), Article 5 (Consular functions).

⁹ Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun - "Yuridik adabiyotlar publish", 2025.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diplomatik va konsullik huquqiga doir barcha mexanizmlar nafaqat xalqaro huquqda balki davlatlar tashqi siyosatida, xalqaro munosabatlarida muhim o'rin tutadi hamda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, diplomatik vakolatxona va konsulxona davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, shuningdek, xorijda bo'lgan fuqarolarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, davlatlarning suveren tengligi va hamkorlik prinsiplari uchun ham huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham diplomatik vakolatxona (elchixona) va konsulxonalar samarali faoliyat olib bormoqda hamda O'zbekiston tashqi siyosatida muhim rol o'ynamoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston davlat mustaqilligini 155ta davlat tan olgan, ularning 142 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari hamda 20ta yirik xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekiston xorijiy davlatlarda 55ta vakolatxonasi (jumladan 28ta elchixona) ochgan. 10

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun - "Yuridik adabiyotlar publish", 2025. 712 b
2. Yuldosheva G. Diplomatik va konsullik huquqi: darslik. Yuldosheva Govxerjan. - T.: TDYU nashriyoti 2024.
3. Vienna Convention on Consular Relations (1963)
4. Vienna Convention on Diplomatic Relations, 1961.
5. U.S. Department of State, Office of the Historian
6. "Cuba – Bilateral Relations" (history.state.gov)

¹⁰ Saidov A.X. Xalqaro huquq: akademik darslik. Bakalavr talabalari uchun - "Yuridik adabiyotlar publish", 2025. 33-bet